

**NAVOIYNING SAMARQANDDAGI HAYOTI TASVIRI**

(Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani misolida )

**San'at SHOMURODOV**

*Nukus innovatsion instituti o'qituvchisi*

**DOI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806393>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning Samarqandda yashagan davridagi faoliyati talqini Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani misolida tahlilga tortiladi. Jumladan, Samarqand ixrojinini yuzaga keltirgan omillar va ulug' shoirning ushbu azim shaharda o'tkazgan yillaridagi ayrim bahsli masalalar ilmiy manbalar orqali qiyosan o'rganiladi va ushbu jarayondagi yozuvchi mahorati masalalari ham tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** "Alisher Navoiy" romani, Samarqand, tarixiy roman, Sayyid Hasan Ardasher, Fazlulloh Abullaysiy, Qozizoda Rumi madrasasi, ijtimoiy tarixiy sharoit, madrasa ta'limi.

**Аннотация:** В данной статье на примере романа Исаджона Султана «Алишер Навои» анализируется трактовка деятельности Алишера Навои во время его пребывания в Самарканде. В частности, на основе научных источников сравнительно изучаются факторы, вызвавшие эмиграцию Самарканд, и некоторые спорные вопросы лет, проведенных великим поэтом в этом пылком городе, а также исследуются вопросы писательского мастерства в этом процессе.

**Ключевые слова:** роман «Алишер Навои», Самарканд, исторический роман, Сайид Хасан Ардашер, Фазлулла Абулайси, медресе Газизаде Руми, социально-исторические условия, медресе образование.

**Abstract:** In this article, the interpretation of Alisher Navoi's activities during his stay in Samarqand is analyzed using the example of Isajon Sultan's novel "Alisher Navoi". In particular, the factors that caused the emigration of Samarkand and some controversial issues of the great poet's years spent in this ardent city are comparatively studied through scientific sources, and the issues of writing skills in this process are also researched.

**Key words:** "Alisher Navoi" novel, Samarkand, historical novel, Sayyid Hasan Ardasher, Fazlullah Abulaysi, Qazizada Rumi madrasa, social and historical conditions, madrasa education.

Milliy adabiyotimiz iftixori bo'lmish Alisher Navoiy hayoti va ijodiyotining ayrim jihatlari tadqiqida barcha buyuk siymolar kabi murakkab jihatlilar mavjud va hali hamon turli bahs-munozaralar davom etayotir. Jumladan, adabiyotshunoslikda va tarixnavislikda shoirning Samarqandda yashagan davri va ushbu tarixiy hodisaning sabablari xususida badiiy adabiyotda turlichalik mavjud. Biz ushbu masalani so'nggi yillar tarixiy romanchiligimiz namunasi hisoblanmish Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani misolida tahlil etamiz. Chunki Alisher Navoiy hayoti va ijodi tadqiqi mustaqillik yillarida keng miqyosda va xolisona o'rganila boshlandi. Adib ijodidagi ba'zi bir yoqlama qarashlar va yondashuvlar barham topa bordi. Romanda ham yozuvchi shoir siymosi va hayot yo'lini talqin etishda eng so'nggi tahlillar va qarashlarni umumlashtirgan holda o'zining ijodiy laboratoriyasida qaytadan yaratishga muvaffaq bo'ldi. Romanda Navoiy hayoti bilan bog'liq barcha

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

jarayonlarga xolisona yondashilganligi, ijodkor shaxsiyati bilan bog'liq barcha jarayonlarni yaxlit qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir. Shu jumladan, ijodkor badiiy tafakkurining teranligi romanda shoir va davr fojialarini to'laqonli yoritishga zamin yaratadi. Ayniqsa, ulug' shoirning Samarqanddagi hayotining dastlabki yillarida yuz bergan ayanchli va murakkab hayoti manzaralari tasvirlari: ham moddiy, ham manaviy jihatdan nochorlikda, karvonsaroylarda hayot kechirgani alloma shaxsiyatiga soya solmaydi, aksincha, ulug' mutafakkir hayotini to'laqonli anglab yetishimizga imkon yaratadi va romanning badiiy qimmatini oshirgan. Chunki adib ijodiga bag'ishlangan tarixiy romanlarda bu masalalar talqini yetarlicha ochib berilmagan. Bizga ma'lumki, temuriy sulton Abusaid Mirzo Xuroson taxtini egallagandan so'ng Alisher Navoiy sulton Husayn Boyqaroning yaqin do'sti va hammaslagi bo'lgani uchun Hirotda ijod qilish va yashash imkonsiz edi va yaqin yor-birodarlarining ham bu shaharni tark etishi, butun Xurosonda muqim qolishi xatarli bo'lgani sababli Samarqandga kelishga majbur bo'ladi va faoliyatining dastlabki yillarida aychayin qiyinchiliklarga duchor bo'ladi. Aynan ushbu jarayon xususida adabiyotshunoslar Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulovlar quyidagicha fikr bildirishgan: *“Ulug' shoir Samarqandga yetib borgach, ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan juda qiynalib yashaydi. Nazorat ostidagi shoirni erksizlik hammadan ham ko'proq eza boshlaydi. Mana shunday bir yuziyatda u tanglikdan chiqishning yo'llarini izlaydi, ustoz, otaxoni Darvesh Sayyid Hasan Ardasherdan najot kutib, unga maktub bilan murojaat etishni lozim topadi. “Hasbi hol” – “Masnaviy”ni olgach, Sayyid Hasan Ardasher Fazlulloh Abullaysiy hamda Xo'ja Ahror Valiylarga maktub yo'llab, Alisherga ko'mak berishlarini so'rgan ko'rinadi. Ana shundan keyingina buyuk faqih Fazlulloh Abullaysiy Alisher Navoiyga o'z madrasasidan joy berib, panohiga oladi. “Majolis un-nafois”dagi: “Faqir ikki yil alarning qoshida saboq o'qub erdim, ancha iltifotlari bor edikim, “farzand” der erdilar” [1.217-218]* “Alisher Navoiy” romanida ham ayni yuqoridagi kabi fikrlarga hamohang talqinlarga duch kelamiz. Samarqandda o'zini asirdek his qilgan ulug' mutafakkir do'stlari, yaqin birodarlari yo'qligidan anchayin aziyat chekadi. Xurosondagi yor-do'stlarini eslab iztirobga tushadi, ularning holidan bexabarligi, o'rtadagi aloqaning uzilganligi va masofaning uzoqligi shoir qalbini larzaga solidi, turfa xil iztirobli o'ylar ichida yurgan Navoiyning xayoliga ustoz Sayyid Hasan Ardasher keladi va unga najot maktubini yo'llashga qaror qiladi: *“Qadr don siymolar qatorida bag'rikeng pir Sayyid Hasan Ardasher yodga keldi. Ulug' yoshli bu kishi tevaragidalarga mehribonligi bois hurmati yuksak, Abulqosim Mirzo saroyida Alisherga doim “farzand” deb xitob qilar, mehr ko'rguzar edi. Isyon uning qalbidan to'fonday toshib chiqardi. O'ylay-o'ylay, Sayyid Hasan Ardasheriga maktub*

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

*bitmoqqa qaror qildi*” [2.117-118] Maktubda Navoiy o‘zining ayanchli ahvolini va taqdir boshiga solgan qismat sinovlarini sher’iy, ya’ni masnaviy tarzida bitib, karvon orqali Sayyid Hasan Ardasheriga jo‘natadi va ushbu maktub mazmuni orqali navqiron Alisher Navoiy holidan xabardor bo‘lgan ustozini zamona talato‘plaridan asrab qolish yo‘llarini izlay boshlaydi va xatni ko‘chirib Abdurahmon Jomiyga ham jo‘natadi. Keyinchalik Samarqandga Xo‘ja Ahror Valiy va Abullays Samarqandiylarga maktub jo‘natiladi va Navoiy hayotida yangi sahifa ochiladi. Yozuvchi mana shunday tarixiy jarayonlarni romanda ishonarli yoritgan. Romanda Alisher Navoiyning Samarqandda tahsil olishi shoirlar va olimlar davrasida o‘tkazgan davri manzaralari ham atroflicha talqin etiladi. Ayniqsa, Fazlulloh Samarqandiy uning iste’dodini qadrlar, unga ilm olish va izlanishga barcha zarur sharoitni hozirlagan edi. Romanda zamonasining ikki buyuk allomasi o‘rtasida kechgan munosabatlarga keng o‘rin berilgan: *“Fazlulloh Abullays yigitchaning salomlashishidan to xonaga kirishi, o‘tirishi, luqma yeyishi va minnatdorlik bildirishigacha – har odobni o‘z o‘rniga qo‘yishiga ko‘ngli yorishib razm solib turardi. Uni mavlono Jomiydek kishi o‘z qanoti ositga olganligi bejiz emas, oliy xulqli, yuksak axloqli yigit ekan!”* (2.128). O‘ziga nisbatan bo‘lgan bunday e’tibor va munosabat yosh shoir qalbini qanchalik ravshanlashtirgan bo‘lmasin bu shodlikning ortida bir dunyo olam qayg‘usi ham bor edi. Gap shundaki, Alisher Navoiyning Samarqandga kelganidan so‘ng Hirot bilan aloqalar uzilgan davrda uning yaqin qarindoshlari bo‘lmish tog‘alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G‘aribiylar Sulton Abu Said Mirzo tomonidan qatl etiladi, otasi esa Sabzavorda bo‘lgan jangda vafot etadi. Taqdirning kutilmagan zarbalari navqiron shoirni yanada iztirobga soladi. Abullays Samarqandiyning ko‘magi va e’tibori tufayli taqdirning hukmiga ko‘nika boshlaydi va butun e’tiborini ilm olishga qaratadi. Romanda Alisher Navoiyning Samarqandda Qozizoda Rumi madrasasidagi ilm- fan muhitidan bahramand bo‘lganligi, u yerdagi olimlar jamiyati va erkin ijodiy muhit ulug‘ mutafakkirning yanada kamolotga yetishida muhim ahamiyat kasb etganligiga alohida urg‘u beradi: *“Madrasa darslari va Fazlulloh Abullays suhbatlari Alisher o‘y-fikrini behad kengaytirib, shu xulosaga olib keldi: nafaqat yer yuzi, balki Koinot ham tengi yo‘q qudrat ko‘rgazmasidir, uning haqiqatlari esa ilm tufayli sodir bo‘lgay”* (2.136) Samarqand, ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan yuksak darajada gullab-yashnagani Alisher Navoiyning ushbu shaharda bo‘lgan davrida ham Ulug‘bekdan qolgan merosiy an’analar davom etgan diniy va dunyoviy bilimlar va badiiy ijod anchayin yuksak darajada kamol topgan edi. Alisher Navoiy o‘zining iqtidori bilan Samarqand ahlining e’tiboriga tushganligi, ikkinchi tomondan temuriy sulola vakillari xonodonga yaqinligi sababi vajidan shoirga nisbatan munosabat o‘zgacha

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bo'lganligini ko'ramiz. Samarqand hokimi Ahmad Hojibek unga ham moddiy ham, ma'naviy jihatdan homiylik qiladi. Navqiron shoirning Samarqaddagi 5 yillik faoliyati davomida ilmi nujum, jug'rofiya, hisob, tib, va she'r san'ati va insoniyat tarixiga oid bilimlarni egallaydi va aynan mana shu jihat uning kelajakda nafaqat buyuk turkiy shoir, balki insoniyat olamida o'zining gumanizm g'oyalari bilan tanilgan qomusiy olim bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarimizni umumlashtirgan holda quyidagicha xulosaga keldik. Alisher Navoiyning Samarqanddagi 5 yillik hayoti va faoliyati o'sha davr ijtimoiy siyosiy jarayonlar silsilasida ro'y bergan tarixiy hodisadir. Yozuvchi Isajon Sulton o'zining romanida yozuvchi hayotining mana shu murakkab va bahsli jihatini xolisona va tarixiylik nuqtayi nazaridan talqin eta olgan. Jumladan, shoirning Samarqand ixrojining dastlabki yillarida nochorlikda – ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qiyin ahvolda qolganligi, o'z zamonasining navqiron shoiri karvonsaroylarda hayot kechirganligi kabi insoniy fojialarini adolat nuqtayi nazaridan talqin etgan va bu holat Alisher Navoiy shaxsiyatiga soya solmaydi va aksincha ulug' alloma hayotini to'laqonli anglab yetishimizga zamin yaratadi.

### Adabiyotlar ro'yxati

#### (Использованная литература / References):

1. Vohidov R. Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrdan XVI asr oxirigacha) T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi nashriyoti, 2006. 217-218 b.
2. Sulton I. Alisher Navoiy. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. – B. 117-118